



## **MAQOM VA SHASHMAQOM ASOSLARI" FANINING O'QITISH BO'YICHA AMALIY TAVSIYALAR**

**Muallif:** Sobirova Gulxayo Aktamjonovna<sup>1</sup>

**Affiliatsiya:** Farg'ona viloyati Rishton tumani 21-bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.1438211>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada bolalar musiqa va san'at maktablari o'quv rejasidan o'rinni organ "Maqom va Shashmaqom asoslari" fanining maqsad va vazifalari batafsil yoritilgan. Maqolada "Maqom va Shashmaqom asoslari" fanining dasturiy muammolari atroflicha o'rganilib, ushbu muammolarning yechimiga doir takliflar keltirilgan. Unga ko'ra maqomlar masalasiga bag'ishlangan o'quv adabiyotlar va ilmiy ishlar tahlil qilinib, mazkur kurs uchun mavzular rejasidagi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish taklifi berilmoqda.

**Kalit so'zlar:** maqom, shashmaqom, bastakor, mushkilot, nasr.

Musiqi tarixiy fanlar blogidan o'rinni organ "Maqom va Shashmaqom asoslari" fani bolalar musiqa va san'at maktabi o'quv rejasiga ko'ra an'anaviy cholg'u ijrochiligi va xonandalik bo'limi o'quvchilariga 2-sinfdan boshlab 5-sinfga qadar 4 yil davomida haftada bir soat guruhli dars sifatida mashg'ulot olib boriladi.

O'zbek musiqa merosida salmoqli o'rinni egallagan maqomlar – asrlar osha og'zaki an'anada bizgacha yetib kelgan professional musiqa namunalari bo'lib, so'ngi yillarda ularni amaliy va nazariy o'rganishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391son qarori [1]da ushbu san'atni rivojlantirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilangan. Jumladan, o'quvchilar qalbida maqom san'atiga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, uning nazariy asoslарini anglashlariga imkon yaratish maqsadida 2020-yildan bolalar musiqa va san'at maktablarining 7 yillik ta'lim yo'nalishi 3-sinf o'quvchilariga, 5 yillik ta'lim yo'nalishi 1-sinf o'quvchilariga "Maqom alifbosi" fanini o'qitish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi 940-son qarori[2]ga muvofiq 2020-2021-o'quv yilidan boshlab Toshkent shahri, Farg'ona, Xorazm, Buxoro viloyatlarida maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maqom-internatlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-sentyabrdagi 536-son qarori [3]ga muvofiq Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining tashkil etilishi ham ushbu soxa ta'lmini tizimli, davlat standartlari asosida olib borilishi va malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ulkan islohatlar natijasidir.



Respublikamizda faolyat olib borayotgan bolalar musiqa va san'at maktablari bo'lg'usi musiqa soxasi vakillarini tayyorlashga qaratilgan boshlang'ish ta'lif maskani bo'lib, ayni vaqtda 14 ta'lif yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib borilmoxda. O'quv reja [4,7-9]ga muvofiq an'anaviy cholg'u ijrochiligi hamda an'anaviy xonandalik yo'nalishlari o'quvchilariga maqom va Shashmaqom asoslari kursi uchun (2-5 sinflar) 136 soat ajratilgan bo'lib, ushbu davr mobaynida maqomlarning nazariy asoslarini to'laqonli o'zlashtirishlari nazarda tutilgan.

Respublikamiz madaniyat va san'at o'quv yurtlarida o'zbek musiqa ijodiyotining tarixiy-nazariy jihatdan o'rganilishi hamda amaliy o'zlashtirilishi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, mumtoz musiqa merosimizga taaluqli "Maqom asoslari" nomli fan, 1972-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyaning Sharq musiqasi kafedrasida ilk bor fan sifatida o'quv jarayoniga kiritilgan. Uning dasturi ijrochilik yo'nalishi (xonandalik va sozandalik) talabalari uchun san'atshunoslik fanlari doktori, maqomdon olim-Ishoq Rajabov, musiqashunoslik yo'nalishi talabalari uchun esa nazariy seminar shaklida san'atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzulla Karomatov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, mualliflar ushbu dasturga asoslangan holda dars mashg'ulotlarini olib boradilar. Vaqt o'tgan sayin fanga bo'lgan e'tibor kuchayadi hamda konservatoriyaada taxsil olayotgan barcha ixtisoslik talabalariga "An'anaviy musiqa asoslari" nomli yangi fan o'qitilishi yo'lga qo'yiladi. Keyinchalik, ushbu fan rivojini taraqqiy ettirish va maqom san'atini nazariy asoslarini bochlang'ich ta'lifdan yo'lga qo'yish maqsadida respublika musiqa va san'at maktablari o'quv rejasiga kiritiladi. Mazkur fan maqsad va vazifalarini amalga oshirish borasida musiqashunos olimlar tomonidan ilmiy-uslubiy izlanishlar olib borildi. Natijada, mumtoz musiqa merosimiz, xususan maqomlar masalasiga oid adabiyotlar, maqolalar hamda nota to'plamlari, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlanib nashr ettirildi.

Aytish joizki, maqom va Shashmaqom asoslari fani bolalar musiqa va san'at maktablari o'quv rejasidan o'rinni olsada, ushbu ta'lif bosqichi uchun uning fan dasturi ishlab chiqilmagan va vazirlik tomonidan tasdiqlanib o'quv jarayonida foydalanishga taqdim etilmagan. Ayni vaqtda ham oliy ta'lif fan dasturlariga tayangan holda, matab o'qituvchilar fanning mazmunidan kelib chiqib, o'zlari yaratgan taqvim rejalar asosida mashg'ulotlarni olib bormoqda. Masalan, Farg'ona viloyatidagi bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilarining ko'pchiligi Marg'ilon shahar 10-BMSM o'qituvchisi Nasibaxon Karimova tomonidan tuzilgan dasturdan foydalanmoqda.

Ma'lumki, maqomlar nafaqat O'zbekistonda balki, Sharq xalqlari musiqa madaniyatida qadimdan mavjud bo'lgan yirik musiqiy janrdir. Ushbu xalqlarning mumtoz musiqa merosini, milliy an'analarini o'zida mujassam etgan maqomlar yetuk sozanda va xonandalar tomonidan yaratilib og'izdan-og'izga o'tib taraqqiy topib kelayotgan kasbiy musiqaning eng mukammal namunasidir. Sharq musiqasiga bag'ishlangan risolalardan bilamizki, ushbu bebaho merosni amaliy va nazariy o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish har bir davrda yuqori darajada bo'lgan.

Maqomlarning nazariy hamda amaliy asoslarini, o'zbek - tojik musiqa madaniyatida tutgan mavqeini, badiiy-estetik qimmatini aniqlash, maqomat tizimi - Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, Xorazm maqomlari va xususan Buxoro Shashmaqomi tarkibiy tuzilishi, ulardagi mavjud cholg'u va ashula bo'limlari shakli, doyra usullari, kuy tuzulmasi, ijro uslubi haqidagi nazariy bilim va ko'nikmalarni

shakllantirishga qaratilgan maqom va Shashmaqom asoslari fanining maqsadi - maqom san'ati (cholg'u ijrochiligi va xonandalik)ni amaliy o'rganishga qadam qo'ygan o'quvchilarda ushubu sohaga oid nazariy bilimlarni ham shakllantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish o'rini deya hisobladik:

mumtoz musiqa janrlarini tasniflash;

cholg'u musiqasi: o'zbek musiqa cholg'ulari va ularning turlari bilan tanishtirish (Cholg'u ansambli. O'zbek milliy cholg'u ansambli tarkibi);

maqomlar tarixini atroflicha yoritish (o'n ikki maqom tizimi);

shashmaqom: ashula va cholg'u bo'limi haqida bat afsil ma'lumot berish;

xorazm maqomlari: cholg'u va aytim yo'llarini yoritish;

farg'ona – Toshkent maqom yo'llari: cholg'u va ashula yo'llari bilan tanishtirish;

o'zbek bastakorlik ijodiyoti: mumtoz musiqa merosiga samarali hissa qo'shgan bastakorlar ijodini o'rganish;

an'anaviy ijrochilik (xonandalik va sozandalik) san'ati ustalari va ularning ijro uslublari, musiqiy merosi haqida ma'lumot berish, namunaviy asarlaridan tinglab tahlil qilish kabi vazifalarni bajarish barobarida turli maqom kechalari va ijrochilari bilan uyushtirilgan davra suhbatlari, mahorat darslariga o'quvchilar tashrifini ta'minlash orqali fan oldiga qo'yilgan maqsadga erishish mumkin.

Ushbu vazifalarni o'quv yili kesimida taqsimlab chiqishni joiz deb bildik. Yuqorida ta'kidlaganimizdek maqom va Shashmaqom asoslari kursi 4 yilga mo'ljallangan bo'lib, birinchi o'quv yilida o'quvchilar quyidagi mavzularni o'zlashtirish orqali yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

fan bilan tanishuv, o'zbek mumtoz musiqasi va uning xususiyatlari, mumtoz musiqa janrlari tasnifi, cholg'u musiqasi, mumtoz yalla va ashula janrlari, katta ashula va doston janri (8 soat);

o'zbek musiqa cholg'ulari va ularning turlari, o'zbek milliy cholg'ulari tasnifi: torli cholg'ular - torli chertma, plektorli, kamonli, urma, cholg'ular, puflama – damli cholg'ular – naysimon, tilsimon va munshtukli cholg'ular tasnifi, urma zarbli cholg'ular, cholg'u ansambli, o'zbek milliy cholg'u ansambli tarkibi (12soat);

Maqomlar tarixidan, o'n ikki maqom tizimi, o'zbek maqomlari – maqomot, Shashmaqomning tarixiy shakllanishi va umumiy tuzilishi (3soat);

Shashmaqomning cholg'u bo'limi: tasnif, tarje, gardun, muhammas, saql cholg'u kuylari, qo'shimcha cholg'u qismlari (7 soat).

Ikkinchchi o'quv yili uchun:

Shashmaqomning ashula (nasr) bo'limi, birinchi guruh sho'balari: sho'ba shakli, saraxbor, talqin, nasr, ufar ashula yo'llari (8 soat);

Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'balari: mo'g'ulcha va saft turkumi hamda ularning shahobchalari (5 soat);

Xorazm maqomlari: cholg'u (chertim yo'li) va aytim yo'llari (9 soat);

Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari. Farg'ona – Toshkent maqomlarining cholg'u va ashula yo'llari (8 soat).

Uchinchi o'quv yili uchun:

O'zbek bastakorligida mahalliy uslublar. Buxoro-Samargand bastakorlik maktabi: Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, Hoji Abdulaziz Abdurasulov (8 soat);

Farg'ona-Toshkent bastakorlik maktabi: Imomjon Ikromov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Muhtorjon Murtazoyev, Jo'raxon Sultonov (5 soat);

Xorazm bastakorlik maktabi: Qurbanazar Abdullayev, Komiljon Otaniyozov (2 soat);

XX asr 30-60-yillari o'zbek bastakorlik ijodi namoyandalari: Muhammadjon Mirzayev, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Saidjon Kalonov (6 soat);

XX asr 60-80-yillari o'zbek bastakorlik ijodi namoyandalari: Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Xotamov (2 soat);

Zamonamiz o'zbek bastakorlik ijodi namoyandalari: Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Ahmadjon Dadayev (3 soat).

To'rtinchchi o'quv yili uchun:

O'zbek an'anaviy sozanda va xonandalari. Buxoro: Domla Halim Ibodov. Xorazm: Hojixon Boltayev, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Komunna Ismoilova. Farg'ona vodiysi: Ma'murjon Uzoqov, Rasulqori Mamadaliyev, Tavakkal Qodirov, Xabiba Ohunova, Berta Davidova, Xadya Yusupova, Rahima Mazohidova, Toshkent: Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Turg'un Alimatov (13 soat);

Yangi davr maqom ijrochilik an'analari (XX asr oxiri XXI asr) (2 soat);

Shashmaqom: cholg'u va ashula bo'limi, ashula bo'limi birinchi va ikkinchi guruh sho'balari, sho'ba shakli, namudlar (7 soat);

Xorazm maqomlari: cholg'u va aytim yo'llari, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari: cholg'u va ashula yo'llari (6 soat);

Maqom cholg'u kuylarining tuzilishi va doyra usullari (2 soat).

Har bir chorak yakunida o'quvchilar bilmini tekshirish va baholash maqsadida nazorat darslari hamda birinchi va ikkinchi yarimyilliklarda yakuniy darslarni o'tkazish orqali o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar sinovdan o'tkaziladi. Natijalarga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilar yaxshi o'zlashtiraolmagan mavzular ustida ko'proq ishlashi va ularning qabul qilish darajasiga mos sodda, aniq ma'lumotlarni to'plash orqali o'z ma'rzasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib boradi. Yuqoridagi mavzularni yoritishda - I.Rajabov "Maqom asoslari" (1992), "Maqomlar" (2006), O.Ibrohimov "Maqom asoslari" (2018), R.Abdullayev "O'zbek mumtoz musiqasi" (2008), O.Ibrohimov, G'.Xudoyev "Musiqqa tarixi" (2018), S.Begmatov, M.Matyoqubov "O'zbek an'anaviy cholg'ulari" (2008), T.G'ofurbekov "Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri" (2019), S.Begmatov "Hofizlik san'ati" (2007), "Bastakorlik ijodi" (2017), K.Olimboyeva, T.Yo'doshboyeva, M.Ahmedov, T.Mirzayev "O'zbekiston xalq sozandalari" (1974), O.Matyoqubov "Maqomot" (2004), B.Madrimov "O'zbek musiqasi tarixi" (2018), R.Yunusov "Sharq xalqlari maqomlari" (2022) kabi adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Shu o'rinda aytish joizki, o'quvchilarning fanga nisbat qiziqishlarini orttirishga hizmat qiluvchi omil bu - nazariy ma'lumotlarni asoslashga qaratilgan tahlil jarayonidir. Ayniqsa, endigina musiqa olamiga qadam qo'yan o'quvchilar diqqatini mavzuga oid musiqiy namunalarni eshittirish, video namoyishi orqali og'zaki tahlil qilib tushuntirish juda samarali usul bo'lib, o'quvchilar dars mazmunini yaxshi anglashlaridagi muhim bosqichdir. Ushbu jarayon o'qituvchidan yuqori bilim, ko'nikma, tajriba va yuksak mahorat, kreativ yondashuv talab qilishi bilan birga yetarli sharoit va imkoniyatlarni ham

taqozo etadi. Kuzatuvlarimiz natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bolalar musiqa va san'at maktabi fonotekalarining faoliyati yo'lga qo'yilmaganligi, kutubxonalarni zaruriy adabiyotlar bilan to'ldirilmaganligi, yuqori tashkilot hodimlari va qolaversa mutahassis kadrlarning loqayd yodashuvi natijasida ushbu fanning maqsad va vazifalari to'laqonli bajarilmay qolmoqda. Fanning mazmun mohiyati o'quvchilar tasvvuriga yetarlicha singdirilmagan bo'lib, buning natijasida mazkur kurs uchun ajratilgan 136 soat dars besamar o'tayotgani achinarli. Samaradorlikning dastlabki bosqichi bu - aniq maqsad va vazifalarni o'zida mujassam etgan fan dasturini ishlab chiqish bo'lib, biz yuqorida ushbu muammo yuzasidan olib borgan ilmiy va pedagogik izlanishlarimiz natijasi o'laroq, kurs davomida o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini har bir o'quv yili taqsimotida ko'rsatdik. Madaniyat vazirligi va viloyat madaniyat boshqarmalari tomonidan soxa mutahassislar, professor o'qituvchilarni uslubiy yordamga jalb etish - turli seminar, mahorat darslari, davra suhbatlarini o'tkazish (onlayn (zoom), oflays), o'quv kurslarini tashkil etish orqali pedagoglar mahoratini oshirishga erishish mumkin.

Xulosa o'rnilida aytish joizki, ushbu maqolamizda bolalar musiqa va san'at maktablari o'quv rejasidan o'rin olgan "Maqom va Shashmaqom asoslari" fanining maqsad va vazifalari batafsil yoritildi. Ushbu fanni ta'lim jaroyonidagi ahamiyati va ayni vaqtida amaliyotdagi ifodasi tahlil etilib, dasturiy muammolarni hal qilishga qaratilgan, ta'lim mazmuniga muvofiq mavzular rejasi taklif etildi. Shuningdek, mavzularni yoritishda zarur bo'lgan adabiyotlar tavsiya qilindi. Fan rivoji va ta'lim samaradorligini oshirishga oid izlanishlarimizni davom ettirgan holda, bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari doirasiga mo'ljallangan o'quv qo'llanma va darsliklarni yaratish niyatidamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391son qarori. Toshkent sh., 2017-yil, 17-noyabr.

Vazirlar Mahkamasining "Maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab internatlarni tashkil etish to'g'risida" gi 940-son qarori. Toshkent sh., 2019-yil 21-noyabr.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 536-son qarori. Toshkent sh., 2020-yil 2-sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 766-son "Bolalar musiqa va san'at maktablarining ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarini hamda o'quv rejalariga tushuntirishlarni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i. Toshkent sh., 2019-yil 30-dekabr, 7-9-betlar.